XALQ DEPUTATLARI KARMANA TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 13 - dekabr VI-71-186-5-71-K/23 Karmana tuman hokimiligi

Karmana tumanidagi “Do‘stlik” mahallasini yangi tashkil etilgan “Yangi O‘zbekiston” massiviga ko‘cha nomini berish to‘g‘risida

“O‘zbekistan Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 2012-yil 16-oktabrdagi 295-sonli qaroriga muvofiq viloyatdagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida”gi masala yuzasidan Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni Davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023-yil 2-avgustdagi 08-05857-sonli xulosasiga muvofiq xalq deputatlari Karmana tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni Davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023-yil 2-avgustdagi 08-05857-sonli xulosasiga asosan Karmana tumanidagi “Do‘stlik” mahallasini yangi tashkil etilgan “Yangi O‘zbekiston” massivida ko‘chasiga “Yangi hayot” deb nom berilsin.

2. Davlat kadastrlari palatasining tuman filiali, tuman qurilish bo‘limi nomi o‘zgargan fuqarolar yig‘ini bilan birgalikda bir oy muddatda geografik obyekt

nomi qayd qilingan peshlavhani o‘rnatsin.

3. Belgilansinki, geografik obyekt nomi qayd qilingan peshlavhani o‘rnatish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar qonunda belgilangan tartibda mahalliy byudjet mablag‘lari hisobiga qoplanadi.

4. Mazkur qaror “Karmana ovozi” gazetasida e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari E.Kenjayev hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi M.Toshov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b **Sh.Zayniev**